



## “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI

**B. T. DAMINOV,**  
**ToshPTI rektori,**  
**Xalq deputatlari Toshkent**  
**shahar kengashi deputati**

Mamlakatimiz Taraqqiyot strategiyasining 5 ta ustuvor yo‘nalishida ta‘lim sohasini sifat jihatdan rivojlantirish birinchi o‘rindagi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Binobarin, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Ta‘lim sohasida farzandlarimiz zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni puxta egallashlari uchun eng qulay sharoitlar yaratish izchil davom etmoqda”. Bugun yurtimizda yoshlarga qaratilayotgan e‘tibor, g‘amxo‘rlik mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning eng ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Prezident Farmoni bilan “O‘zbekiston – 2030” – strategiyasi tasdiqlandi hamda uni 2023 yilda o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo‘yicha Prezident qarori qabul qilindi. Farmonga ko‘ra “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi 5 ta ustuvor yo‘nalish hamda 100 ta maqsaddan iborat.

Birinchi yo‘nalish “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” deb nomlanib, unda ta‘lim tizimi islohotlari bo‘yicha 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari belgilandi. Jumladan, oliy ta‘lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrab olish darajasi kamida 50 foizga yetkaziladi, umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari oliy ma‘lumotli pedagog kadrlar bilan to‘liq ta‘minlanadi. 30 ta oliy ta‘lim muassasasining ta‘lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkaziladi hamda “Top-500”ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma ta‘lim dasturi asosida “ikki diplomli tizim” joriy etiladi. Shuningdek, 10 ta oliy ta‘lim muassasasini

dunyoning eng nufuzli “Top-1 000” oliy ta‘lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishiladi, oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligi oshirilib, ilmiy salohiyat 70 foizga yetkaziladi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga binoan, oliy ta‘lim muassasalarining tashkiliy boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta‘minotini mustahkamlash maqsadida 5 ta oliy ta‘lim muassasasi milliy tadqiqot oliygohlariga aylantiriladi, qo‘shimcha 120 ming o‘rinli o‘quv binolari hamda 150 ming o‘rinli talabalar turar joyi quriladi. Kutubxonalar kamida 1 millionta zamonaviy adabiyotlar bilan to‘ldirilib, kutubxona fondi to‘liq raqamlashtiriladi.

Shuningdek, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida har yili 500 nafar iste‘dodli yoshlar xorijning nufuzli oliygohlariga o‘qishga yuboriladi. Xususan, ToshPTIda yetuk xorijiy tibbiyot universitetlari o‘quv dasturlarini tibbiyot oliy ta‘lim muassasalariga tadbqiq etish bo‘yicha hamkorlik ishlarini rivojlantirish belgilab olindi. Janubiy Koreyaning Yonsey universiteti, Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universiteti, Italiyaning Piza universiteti bilan transformatsiya Kontsepsiyasi asosida o‘quv dasturlari o‘rganildi va tahlil qilindi. Tasdiqlangan malaka talabalari va xorijiy tajribaga asoslangan holda fan dasturlarini qayta tayyorlash va 2024-2025 o‘quv yilidan joriy etish belgilab olindi. 2022-2023 o‘quv yilida 7 ta chet el davlatlaridan 77 nafar xorijiy fuqaro tahsil olgan bo‘lsa, 2023-2024 o‘quv yilida 300 nafarga yaqin xorijiy davlatlar fuqarolarini o‘qishga qabul qilish rejalashtirilgan. Shulardan 200 nafar talabaga o‘qish ingliz tilida olib boriladi.

Chet elning nufuzli tibbiyot muassasalarini hamkorlik aloqalar ko‘lamini kengaytirish maqsadida 20 ta xalqaro hamkorlik to‘g‘risida hujjatlar (memoran-

dum, shartnoma) imzonlangan. Xorijiy hamkor oliy ta‘lim muassasalarini bilan akademik mobillikni amalga oshirish maqsadida 2022-2023 o‘quv yilida Daegu Haany universiteti (Koreya), Ostona tibbiyot universiteti (Qozog‘iston), N.I.Pirogov nomidagi Rossiya Milliy tadqiqot tibbiyot universiteti (RF), Slovakiya va Medipol klinikasi (Turkiya), bilan hamkorlikda akademik mobillik dasturlari doirasida 15 nafar talaba amaliyot o‘tadi.

Shuningdek, yirik xorijiy universitet kampus tarmog‘i tizimini o‘rganish asosida “SMART UNIVERSITY 2.0” kontsepsiyasi yaratiladi va bu tizimga bosqichma-bosqich o‘tiladi. 3-son Talabalar turar joyi raqamlashtirildi. Startaplar madaniyati va ularda ishtirok etuvchi talabalar, yosh olimlar qamrovi kengaytiriladi. Institutning yaratilgan shaxsiy videokonferentsiya tizimi milliy bulutli texnologiya tizimiga o‘tkaziladi. To‘ldirilgan va Virtual reallik elementlarini (Augmented and Virtual Reality), golografiya texnologiyalari o‘quv jarayoniga tadbqiq etiladi. Institut media veb-portali (YouTube kabi) joriy etiladi va muntazam ishlashi ta‘minlanadi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida aholi salomatligini ta‘minlash borasida qator islohotlar belgilandi. Unda aholi salomatligini ta‘minlash bo‘yicha ham qator islohotlar belgilangan. Strategiyaga asosan, 2023-yilgacha aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini 78 yoshga yetkazish maqsad qilingan. Shuningdek, tibbiyotga yo‘naltiriladigan mablag‘lar hajmi 2 barobarga oshirildi. Onkologiya, yurak-qon tomir, diabet va nafas yo‘llari kasalliklari bo‘yicha erta o‘limni 2,5 barobarga kamaytirish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, sil kasalligi bilan kasallanish darajasini 100 ming nafar aholiga nisbatan hozirgi 34 nafardan keskin kamaytirish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, 7 yil ichida tibbiyot muassasalarini raqamlashtirish darajasini 100 foizga yetkazish ko‘zlanmoqda.

## “YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O‘ZBEKISTON UCHUN!”



2023-yil 4-9-sentabr kunlari Toshkent pediatriya tibbiyot institutida 2023/2024-o‘quv yili munosabati bilan “Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun!” deb nomlangan “Mustaqillik darsi” o‘tkazilmoqda. Unda institutning 1-bosqichiga qabul qilingan talabalari ishtirok etishdi.

Yoshlar tafakkurini milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik tuyg‘ularini yanada shakllantirish maqsadida tashkil etilgan darslar doirasida “Qatag‘on qurbonlari” xotirasiga bag‘ishlangan “Vatan ozodligi yo‘lida shahid ketganlar xotirasi barhayotdir” mavzusida ochiq darslar tashkil etildi. Shuningdek, 1-kurs talabalari uchun “Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun!” mavzusida mustaqillik hamda mutaxassislikka kirish darslari o‘tkazildi.

Mutaxassislikka kirish darslarida institut professorlari Y.N.Madjidova, S.J.Aminov, Sh.M.Axmudov, N.R.Aliyeva, X.A.Rasulovlar ma’ruza qilishdi.

Shuningdek, institut jamoat tashkilotlari mas‘ullari tomonidan tanishtiruv darslari o‘tkazildi. Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrası professor-o‘qituvchilari tomonidan “Mustaqillik darslari” mavzuga doir

prezintatsiya va videoroliklardan foydalangan holda yuqori saviyada tashkil etildi. Talabalarining bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish va madaniy hordiq chiqarishlariga ko‘maklashish, ularda Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat hissini kuchaytirish maqsadida institut muzey va kutubxonalar bilan yaqindan tanishtirildi.

Bugungi globallashuv davrida insoniyat, xususan, yoshlar turli xavf-xatarlarga duch kelmoqda. G‘arazli kuchlar ertamiz egalarining umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda ota-onalar va ustoz-murabbiylar bu masalada xushyorlik va ogohlilikni yanada oshirishlari kerak. O‘g‘il-qizlarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz zarur. Zero, joriy yilga Prezidentimiz tomonidan “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” deb nom berilganining zamirida ham shu mohiyat mujassam. Farzandi talabalik baxtiga erishgan ota-onalarning quvonchi cheksiz. Farzandi kelajagiga katta umid bilan qaragan ota-onalar bilan ham institut hayoti va o‘quv jarayonlaridan xabardor bo‘lishi muhim. Shu maqsadda 1-bosqichda tahsil olayotgan talabalarining ota-onalari bilan ToshPTI rahbariyati o‘rtasida ochiq muloqot va institutning e‘tiborga loyiq joylariga sayohat tashkil etildi.

**Muborak AHMEDOVA,**  
**ToshPTI yoshlar masalalari**  
**va ma’naviy-ma’rifiy ishlar**  
**boyicha prorektor**

## UCHINCHI UYG‘ONISH DAVRIN YARATGIN



*Yoshligidan asli bo‘lishgan dono,  
Al Beruniy, Xorazmiy va ibn Sino.  
Ulkan bilim, meros qoldirgan ular,  
Buni “Ilk Renessans” davri deb bo‘lar.*



*Ilmu fanni xo‘p yashnatdi Temurbek,  
Falak tomon narvon tortdi Ulug‘bek,  
Navoiyning buyukligi  
dunyoda doston,  
“Ikkinchi Renessans”  
bo‘ldi ul davron.*



*Senga nasib etdi endi  
bu zamon Azizim,  
dunyoni o‘zgartir, uyg‘on!  
Uchinchi uyg‘onish  
davrin yaratgin,  
O‘zbekning nomini  
ko‘kka taratgin!*



**Kavsar**  
**TURDIYEVA**

## SOG'LOM AVLODGA BAXSHIDA UMR

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmoniga ko'ra,  
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti professori - Jabbarova Yulduz Qosimovna I-darajali  
"Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan mukofotlandi.*

Shifokorlik Jabbarova Yulduz Qosimovnaga ona meros. Buni biz opa-ning xotiralaridan bilib olamiz. "Ayam Zebi Saliyevna Hojixonova 1936-yilda Samarqand Davlat tibbiyot institutini bitkazganlar. Qo'qonning faol ayollaridan sanalganlar. O'sha paytda birinchi o'zbek akusher-ginekologi bo'lganligi uchun el-yurtning hurmatini qozongan. Respublikada xizmat ko'rsatgan shifokor unvoniga sazovor bo'lib, shahar tug'ruqxonasiga 35 yil davomida rahbarlik qilgan ayol edi".

Ona o'gitlariga amal qilgan qizga omda kulib boqdi. Toshkent Davlat tibbiyot oliygohini a'lo baholar bilan bitkazdi. Bilim va iqtidorini sezgan ustozlar unga aspiranturada qolishni taklif qilishdi. Yulduz Jabbarova ayollarda kam qonlik kasalligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. 1987-yilning bahori olimi hayotiga unutilmas voqea bilan kirib keldi. U Moskvada doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Opa endi ayni kamolot yoshiga yetgan, faqat vijdon va burchga sodiq bo'lib ishlashga odatlangan shifokor timsolida yaqqol namoyon bo'lardi. Respublika Sog'liqni saqlash Vazirligida ishlagan yillarida ham onalar va bolalar salomatligi uning diqqat markzida bo'ldi. Toshkent tibbiyot oliygohining kafedra professori, bo'lim boshlig'i lavozimida faoliyat ko'rsatganida ham ilmiy ishlar olib bordi. Ekstragenital kasalliklar bilan og'rikan bemorlar, tug'adigan va tuqqan ayollarga yordam berish yo'llarini izladi. Kamqonlikning ta'siri tuqqan ayollarda chilla davrida qanday kechadi? Kasallik bemor yuragida, buyragida qanday asorat qoldiradi? Ana shu savollar uni yanada chuqurroq o'ylashga undadi.



Yulduz Jabbarova prof. A.A.Kogan, prof. A.I.Nikolayev, prof. V.I.Bodyajina ilmiy maktabining shogirdi, prof. A.A.Kogan, prof. A.S.Morduxovich singari olimlar rahbarligida yetuk mutaxassis bo'lib shakllandi.

U 1990-1993-yillarda Ikkinchi ToshDavTI akusherlik va ginekologiya kafedrasini mudiri, 1994-2000-yillarda Birinchi ToshDavTI Urganch filiali akusherlik va ginekologiya kafedrasining mudiri, so'ngra "Sog'lom avlod uchun" xalqaro nodavlat xayriya jamg'armasining Xorazm bo'limi direktori lavozimlarida faoliyat yuritdi. Shu yillar mobaynida viloyat akusher-ginekologlari va terapevtlarining malakasini oshirishga katta hissa qo'shdi. 2000-yildan Ikkinchi ToshDavTI (hozirgi TTA) yangidan tashkil qilingan 1-akusherlik va ginekologiya kafedrasining professori Yulduz Djaborova so'ngi yillarda o'z mehnat faoliyatini Toshkent Pediatriya tibbiyot institutida davom ettirib kelmoqda.

Professor Yulduz Jabbarova 374 ta ilmiy asarlar muallifi, ulardan 6 tasi monografiyalari: "Homiladorlarda temir tanqisligi kamqonligi", "Homiladorlarda temir tanqisligi kamqonligini profilaktika qilish va davolash", "Homiladorlar temir tanqisligi kamqonligida ona va homilaning o'zaro munosabatlari", "Ayollar maslahatxonasi va poliklinikasida akusherlik asoratlarining profilaktikasi", "Qizlar reproduktiv salomatligini tibbiy-ijtimoiy jihatlar", shifokorlar uchun 24 ta uslubiy tavsiyanomalar, 47 ta o'quv-uslubiy qo'llanmalar va uslubiy tavsiyanomalar muallifidir.

Ustoz sifatida 3 nafar fan doktori va 18 nafar fan nomzodlarini yetishtirgan professor Yulduz Jabbarova olim sifatida respublikada akusherlikda ekstragenital patologiya, kamqonlik va preeklampsiya muammosiga boshchilik qiladi, reproduksiya immunologiyasi, perinatologiya, onalar o'limi va akusherlikdagi tanqidiy vaziyatlar muammosiga, ayollar xirurgik



kontratsepsiya masalalariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib bordi.

Yulduz Jabbarova ilmiy-uslubiy va kasbga tayyorlashning barcha bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgan va yuksak malakaga yega mutaxassis. U tibbiyot oliy o'quv dargohida 56 yil ulkan pedagogik tajriba to'plagan, akusherlik va ginekologiya bo'yicha magistrlar tayyorlashga katta hissa qo'shib kelgan oliy malakali shifokor va xirurg, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Yulduz Jabbarova ilm cho'qqilarini zabt etgan, serg'ayrat, ma'nan yetuk, talabchan, tashabbuskor, kamtarin, bemorlarga mehribon, hamkasblari, talabalarga g'amxo'r bo'lganligi bois tibbiyot jamoasi orasida katta hurmatga sazovor bo'lgan inson.

Qutlug' 80 yoshni qarshilagan professor Yulduz Jabbarova "Eng yaxshi darslik va o'quv adabiyoti muallifi" tanlovida g'olib chiqib mukofotga sazovor bo'lgan. Ko'p yillik halol mehnatlari evaziga "Sog'liqni saqlash a'lochisi" (1995) va "Mehnat faxriysi" (2021) nishonlari hamda 2023-yil I darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

Institutimiz jamoasi nomidan professor Yulduz Jabbarovani yuksak mukofot bilan qutlaymiz!

**B. G'O'CHCHIYeva**

## ЛЮДИ РАЗНЫЕ НА СВЕТЕ...




Люди разные на свете:  
Кто-то добрый, кто-то злой.  
Но рождаются ведь дети  
С чистой, светлой душой.  
В них, прелестнейших созданиях,  
Не бывает зависть, ложь.  
Потому что в том сознании  
Чашу лишь любви найдёшь.  
Их глаза горят от счастья,  
За возможность быть живым.  
А улыбка, смех в ненастье,  
Несут благо остальным.  
Почему они взрослея,  
Изменяют облик свой?  
Сердце вдруг их каменеет,  
Заполняя мир пустой.  
Как же так всё происходит?  
В чём главнейший тут секрет?  
Кто же тайну мне откроет?  
Где краса тех юных лет?  
Здесь вопрос немного сложен,  
Ведь вся правда в глубине  
Корень, тот, который нужен,  
Он скрывается в семье.  
Очень часто так бывает:  
Человек растёт в среде,  
Где духовно погибает  
То живёт сам по себе.  
Ввиду этих докозательств  
Чаша верности, добра  
Начинается с обстоятельств,  
Скрытых чувств, порой и зла.  
Почему бы не наполнить  
Детство радостной волной,  
Лаской, нежностью украсить  
И сказать: «Я здесь, родной!  
Я тебя люблю, ты знаешь,  
Ты мне нужен, дорогой,  
Ты со мной, мне доверяешь,  
А я рядом, милый мой.»  
Детям нужно и внимание,

И забота, и уход,  
Ведь взаимопонимание  
Только так в ваш дом войдет.  
Это есть тот ключ к разгадке,  
Путь к которому велик,  
Потому что дети - счастье,  
Превращают мир в цветник!

Дзвивинская Юлия,  
студентка 4- курса факультета  
«Лечебное дело». Она обладательница  
Государственной премии имени Зульфийи.



## BULUT



Osmonlarda kezardi bulut,  
Hayotini mangu bilardi,  
Yer yuziga qarardi goho,  
Tuproqni ko'p mazax qilardi.  
Ey sen Tuproq, pastdasan buncha,  
Samolarga yetmasmi bo'yung?  
Doim oyoq osti bo'lguncha,  
Yuksak bo'lsa qaniydi o'yung?  
Siljimaysan hatto joyingdan,  
Mendek sayr qila olmaysan,  
Men bo'lsam-chi samo kezaman,  
Sen hech mendek bo'la olmaysan.  
E'tibor ham bermay bulutga  
U gaplarini sho'xlikka yo'ydi,  
Ko'pni ko'rgan donishmand tuproq  
Miyig'ida bir kulib qo'ydi.  
Osmonlarda uchgan quv bulut  
Bo'ldi bir kun ahvoli yomon,  
Tomchilarga aylanib tani,  
Qulab borar edi yer tomon.  
Tuproq unga bag'rini ochdi,  
Tutmadi ham hatto so'roqqa,  
Bulut esa suvga aylanib,  
Singib ketdi o'sha tuproqqa.

Dehqonboyev TOHIR

 SALOMATLIK - TESHMAN BOYLIK. TIBBIOBOLIK BAHOLASH - BO'LIQIHIQO'ZIRI  
**PEDIATR**  
TOSHKENT PEDIATRIYA  
TIBBIVOT INSTITUTI MEHNAT  
JAMOASI NASHRI  
ORGAN TRUDOVOGO  
KOLLEKTIVA TASHKENTSKOGO  
PEDIATRICHESKOGO  
MEDITSINNSKOGO INSNITUTA

**Tahrir kengashi:**  
D.A. Asadov, A.V. Alimov,  
X.F. Haydarov, M. Ahmedova,  
K.N. Haitov, S.S. Gulyamov,  
D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev,  
S. Nurxodjayev A. Valiyev,  
A. Nosirov, D. Choriyeva.  
**Nashr uchun mas'ul:**  
F. Ibodova

**Bosh muharrir:**  
B.T. DAMINOV  
Tahrir hay'ati: (ishchi guruhi)  
E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva  
**(Bosh muharrir o'rinbosari),**  
A.M. Mannonov,  
D.A. Ahmedova, H. Rasulov  
S.A. Begmonov, H. Abidov,  
Z. Karimova, A. Xudayberdiyev,  
B. G'o'chchiyeva.

Gazeta Toshkent shahar matbuot va  
axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil  
02-0010-son bilan ro'yxatga olingan.  
Manzil: 700140, Toshkent-140,  
Bog'ishamol ko'chasi, 223  
"XALQ NASHRIYOTI" XKda chop etildi.  
Manzil: Toshkent sh. Qorasaroy ko'chasi, 316 uy.  
Tel.: (71) 242-0510; (95) 170-04-02; (99) 040-04-02.  
buyurtma adadi 110 nusxa, qog'oz bichimi A3.  
Gazeta institut hisobidan nashr etiladi  
va bepul tarqatiladi.